

**Raxmonov Furqat Abduxakimovich.**  
Jizzax Politexnika instituti, O'zbekiston Respublikasi

## **MAHALLIY SHAHARSOZLIK FAOLIYATIDA XALQARO ISO STANDARTLARINING QO'LLANILISHI**

**Annotatsiya:** Xalqaro standartlarni mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida qo'llanilishi raqobatbardoshlikni ta'minlaydi, ISO ga a'zo davlatlar esa texnik qo'mitalar faoliyatida faol ishtirok etish orqali o'z manfaatlarini ximoya qilishga va xalqaro me'yoriy hujjatlarni o'zlarida joriy etishga erishadilar. Xalqaro standartlar, asosan, maxsulotlarni inson xayoti va sog'lig'iga, atrof-muxitga xavfsizligi, o'zaroalmashuvchanlik va texnik mosliligi talablarini va sinov uslublarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.03.2020 yildagi PF-5963-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasi hududida milliy me'yoriy hujjatlar bilan bir vaqtda shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xorijiy me'yoriy (xususan,xalqaro) hujjatlar qo'llanilishi kerakligi belgilangan.

**Kalit so'zlari:** Standartlashtirish, ISO, TQ, Katalogi (ISO Catalogue), ISO Bulletin, Strategiyasi, Muxandislik-geologik, ISO/TMBG TQ, Halqaro standartlar, (ISO, HEK va boshqalar), Davlatlararo standartlar (GOST), Milliy standartlar, loyixalash.

**Рахманов Фуркат Абдухакимович**  
Джизакский политехнический институт, Республика Узбекистан

**Аннотация:** Использование международных стандартов в производстве и обслуживании местной продукции обеспечивает конкурентоспособность, а страны-члены ИСО могут защищать свои интересы и международные нормативные документы, активно участвуя в деятельности технических комитетов, их внедрения в себе. Международные стандарты в основном включают требования безопасности продукции для жизни и здоровья человека, экологической безопасности, интероперабельности и технической

совместимости, а также методов испытаний. В Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПФ-5963 от 13.03.2020 иностранные нормативные (в частности, международные) документы в области технического регулирования в сфере градостроительства должны применяться одновременно с национальными нормативными документами. на территории Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Стандартизация, ISO, TQ, Каталог (ISO Catalogue), Бюллетень ISO, Стратегия, Геологическая инженерия, ISO/TMBG TQ, Международные стандарты (ISO, НЕК и др.), Межгосударственные стандарты (ГОСТ), Национальные стандарты, проектирование.

**Rakhmonov Furqat Abdukhakimovich.**  
Jizzakh Polytechnic Institute, Republic of Uzbekistan

**Annotation:** Abstract: The use of international standards in the production and service of local products ensures competitiveness, and ISO member countries can protect their interests and international normative documents by actively participating in the activities of technical committees. they achieve implementation in themselves. International standards mainly include requirements for safety of products for human life and health, environmental safety, interoperability and technical compatibility, and test methods. In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5963 dated 13.03.2020, foreign regulatory (in particular, international) documents in the field of technical regulation in the field of urban development should be applied simultaneously with national regulatory documents in the territory of the Republic of Uzbekistan. defined.

**Key Words:** Standardization, ISO, TQ, Catalog (ISO Catalogue), ISO Bulletin, Strategy, Engineering-geological, ISO/TMBG TQ, International standards, (ISO, НЕК, etc.), Interstate standards (GOST), National standards, design.

**Kirish.** Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) ning Nizomida «Tashkilotning maqsadi, dunyo miqyosida xalqaro tovar-ayirboshlashni va o'zaro

yordamni rivojlantirishga yordam ko'rsatish, xamda intellektual, ilmiy, texnik va iqtisodiy faoliyat sohalarida xamkorlikni kengaytirish» ekanligi ko'rsatilgan. ISO ning texnik qo'mita (TQ) lari tomonidan yaratilgan standartlar, rahbariy xujjatlar, qoidalar tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan milliy standartlar sifatida qo'llanilishi mumkin. ISO standartlari yuqori malakali mutaxassislar tomonidan fan va texnika yutuqlari asosida ishlab chiqiladi va ular ko'plab mamlakatlar tomonidan bir vaqtda qo'llaniladi, bu standartlarni O'zbekistonda qo'llanilishi esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta imkoniyatlar yaratishi mumkin.

**Masalaning qo'yilishi.** Xalqaro standartlarni mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida qo'llanilishi raqobatbardoshlikni ta'minlaydi, ISO ga a'zo davlatlar esa texnik qo'mitalar faoliyatida faol ishtirok etish orqali o'z manfaatlarini ximoya qilishga va xalqaro me'yoriy xujjatlarni o'zlarida joriy etishga erishadilar. Xalqaro standartlar, asosan, maxsulotlarni inson xayoti va sog'lig'iga, atrof-muxitga xavfsizligi, o'zaroalmashuvchanlik va texnik mosliligi talablarini va sinov uslublarini o'z ichiga oladi. Mahsulotlarning bevosita sifatiga aloqador ko'rsatgichlar aksariyat hollarda korxonalar (tashkilot)lar me'yoriy xujjatlarida belgilanadi.

ISO xar yili standartlar Katalogi (ISO Catalogue), MXlar bibliografik ko'rsatkichi, amalga oshirilgan ishlar Xisobotini va ikki yilda bir marta Texnik dasturini nashr etadi. ISO doimiy faoliyati to'g'risidagi axborotlar oylik byulleten (ISO Bulletin)da berib boriladi. O'zbekiston Standartlashtirish bo'yicha milliy idorasi 1994 yildan boshlab ISO ning xaqiqiy a'zosi xisoblanadi. ISO ning texnik qo'mitalari tomonidan hozirda 25000 ga yaqin turli sohalarga oid me'yoriy xujjatlar ishlab chiqilgan. ISO tashkilotining "ISO 2030 Strategiyasi" deb nomlangan 2021-2030 yillarga mo'ljallangan rejasida "Xayotni oddiyroq, xavfsizroq va yaxshiroq qilamiz" shiori qabul qilingan. "ISO 2021-2030 Strategiyasi bizning qarashlarimizni (nima uchun biz shu ishlarni qilayapmiz), bizning vazifamizni (nima qilayapmiz va buni qanday qilayapmiz), maqsadlarimizni (o'z maqsadimiz va mo'ljalimizni amalga oshirish uchun nimalarga erishishimiz kerak) va ustuvor niyatlarimizni (maqsadlarni

amalga oshirish uchun resurslarimizni nimalarga qaratishimiz kerak) belgilaydi. Ushbu ustuvorliklar muntazam ravishda ko‘rib chiqilishi va kerak bo‘lganda, dunyodagi har qanday o‘zgarishlarga javob berish uchun sozlanishi mumkin bo‘lgan tarzda ishlab chiqilgan”. ISO / TC 98 texnik qo‘mitasi tomonidan inshootlarni qurilishi va ularni loyixalash, qurilish materiallari va konstruksiyalariga talablarni o‘z ichiga oluvchi ko‘plab standartlar ishlab chiqilgan. Xususan, shu texnik qo‘mita tomonidan inshootlarni loyixalashga tegishli quyidagi standartlar ishlab chiqilgan:

ISO 23469: 2005 Inshootlarni loyihalash asoslari - Muxandislik-geologik ishlarni loyixalashda seysmik ta’sirlar (Bases for design of structures — Seismic actions for designing geotechnical works);

ISO 22111: 2019 Konstruksiyalarni loyihalash asoslari – Umumiy talablar (Bases for design of structures — General requirements);

ISO 21650: 2007 Qirg‘oq inshootlariga to‘lqinlar va oqimlarning ta’siri (Actions from waves and currents on coastal structures).

ISO 15928-3: 2015 Uylar – Ko‘rsatgichlarni tavsiflash - Qism 3: Konstruksiyalar mustahkamligi (Description of performance — Part 1: Structural safety)

ISO 13824: 2020 Konstruksiyalarni loyixalash asoslari - Konstruksiyalarni o‘z ichiga oluvchi tizimlarning riskini baxolashning umumiy prinsiplari (Bases for design of structures — General principles on risk assessment of systems involving structures)

ISO 13823: 2008 Konstruksiyalar mustahkamligini loyixalashning umumiy prinsiplari (General principles on the design of structures for durability)

ISO/TMBG TQ tomonidan suv yo‘llari, portlar va dambalarning xamda gidrotexnik inshootlarning qurilishi bo‘yicha me‘yorlarni belgilovchi ISO standartlari ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 02.04.2018 yildagi PF-5392-son Farmonida Shaharsozlikning zamonaviy usullari, me‘yorlari va

qoidalari hamma joyda ham joriy etilmayotganligi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi MHlar eskirgan va arxitektura-qurilish ishlarining innovatsion usullaridan keng foydalanilishini hisobga olmayotganligi ko'rsatilgan bo'lib, bunday kamchiliklar loyiha-smeta hujjatlari va qurilish sifatiga salbiy ta'sir qilayotganligi qayd etilgan.

**Yechish usuli.** O'zbekiston Standartlashtirish bo'yicha milliy idorasining me'yoriy xujjatlar davlat fondida 40 mingdan ortiq me'yoriy xujjatlar ro'yxatga olingan: O'zbekiston milliy standartlari, Halqaro standartlar, (ISO, HEK va boshqalar), Davlatlararo standartlar (GOST), chet mamlakatlarning milliy standartlari va boshqalar. O'zbekiston milliy standarti O'z DSt ISO/IEC 21 da xalqaro standartlar (xususan, ISO standartlari)ni O'zbekistonda milliy standart sifatida qo'llash tartibi belgilangan. O'zbekistonda hozirda 2000 dan ziyod ISO standartlari va qo'llanmalari milliy standartlar sifatida iqtisodiyotning turli soxalarida joriy etilgan. O'zbekistonda qo'llanilayotgan qurilish va loyihalash sohasidagi me'yoriy xujjatlarning aksariyati xalqaro xujjatlarga uyg'unlashtirilmagan. ISO tashkiloti tomonidan oxirgi yillarda qurilish va loyixalash sohasidagi, qurilish materiallariga texnik talablarga tegishli ko'plab me'yoriy xujjatlarning ishlab chiqilgan bo'lib, ularning aksariyati mamlakatimizda joriy etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.03.2020 yildagi PF-5963-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasi hududida milliy me'yoriy hujjatlar bilan bir vaqtda shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xorijiy me'yoriy (xususan,xalqaro) hujjatlar qo'llanilishi kerakligi belgilangan.

O'zbekiston milliy standarti O'z DSt ISO/IEC 21 da belgilangan tartibga ko'ra, xalqaro ISO standartlarini O'zbekistonda milliy standart sifatida to'liq to'g'ridan-to'g'ri yoki bosqichma-bosqich qo'llash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida" Qonuniga asosan "Milliy standartlar mamlakatimiz ilm-fani va xorijiy ilm-fan yutuqlariga asoslanishi hamda ushbu Qonunning, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalarning talablariga zid

bo‘lmasligi kerak”, “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari qo‘llanilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning ularni amalga kiritish to‘g‘risidagi qarori asosida milliy standartlar bilan teng ravishda qo‘llaniladi” deb ko‘rsatilgan. Qayd etilganlarga asosan, O‘zbekistonda xalqaro ISO standartlarini milliy standartlar sifatida to‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyotidan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Inshootlarni loyixalash, qurish bo‘yicha tizimni takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: qurilish va loyixalash sohasida standartlashtirishni boshqaruv asoslarini xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish; halqaro va mintaqaviy standartlarni loyixalash va qurilishda keng ko‘lamda qo‘llanilishini ta‘minlash; halqaro me‘yorlarga uyg‘unlashtirilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqish va joriy etish; loyihalash va qurilish xamda inshootlar konstruksiyalari va materiallari uchun milliy standartlarga mavjud xalkaro (regional) me‘yoriy hujjatlarni asos kilib olinishini rag‘batlantirish; loyihalash va qurilish soxasidagi mahalliy davlat boshqaruv idoralarining tegishli xalqaro (regional) tashkilotlar faoliyatidagi ishtirokini jadallashtirish; O‘zbekistonda loyihalash, qurilishga tegishli xalqaro, xududiy va rivojlangan mamlakatlar standartlarini davlat tiliga tarjima qilish, ularni milliy standartlar sifatida joriy etishning samarali mexanizmini amaliyotga kiritish kerak.

**Natijalar.** Berilgan takliflarning O‘zbekistonda loyihalash, qurilish amaliyotiga joriy etilishi:

shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va yangilash, idoraviy qurilish norma va qoidalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, loyihalash, qurilish, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish sohasida standartlashtirish ishlarini takomillashtirish, maxalliy qurilish va loyixalash faoliyatini xamda qurilish materiallari sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga erishish imkonini beradi.

**Xulosa.** O‘zbekistonda amalda bo‘lgan shaharsozlik bo‘yicha qonunchilik talablarini xalqaro talablarga uyg‘unlashtirish, loyixalash, qurilishga tegishli ISO standartlarini O‘zbekiston milliy standartlari sifatida to‘liq joriy etish kerak. Xalqaro standartlarni O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyotidan keng qo‘llash kerak. Bu bozor tamoyillarini mamlakatda keng joriy etishga qaratilgan reformalarga mos keladi va O‘zbekistonning dunyo bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida» gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 02.04.2018 yildagi PF-5392-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi 13.03.2020 yildagi UP-5963-sonli Farmoni.

3.Рахмонов Ф.А. ЧУВСТВИТЕЛЬНАЯ ИЗМЕРИТЕЛЬНАЯ СХЕМА ДЛЯ ЗОНДОВЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ВЛАЖНОСТИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 94-102

4.Isroilov F. M., Rakhmonov F. A., ugli Ungarov D. Y. HIGH RESPONSIBILITY (SENSITIVITY) AND ACCURACY OF TEMPERATURE SENSORS FACTORS OF ACHIEVEMENT AND RELIABLE OPERATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 163-169.

5.Raxmonov F. A. Advantages of Introducing Quality Management System in Textile Companies of the Republic //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 11. – С. 95-97.



6.Турапов У. Ў., Мулданов Ф. Р., Рахмонов Ф. А. ШАХСНИНГ БИОМЕТРИК ХУСУСИЯТЛАРИ АНИҚЛАШДА ЮЗ ТАСВИРНИ СЕГМЕНТЛАШ, ИДЕНТИФИКАЦИЯЛАШ, ФИЛЬТРЛАШ, ЮЗ БЕЛГИЛАРИНИ АЖРАТИШ МЕЗОНЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ МУОММОЛАРИ //Conferencea. – 2022. – С. 15-22.

7.Рахмонов Ф. А. ЧУВСТВИТЕЛЬНАЯ ИЗМЕРИТЕЛЬНАЯ СХЕМА ДЛЯ ЗОНДОВЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ВЛАЖНОСТИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 94-102.

8. Мухаммадиев Б. С. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 42-47.

9. Мухаммадиев Б. С. ПРЕОБРАЗОВАНИЯ МЕХАНИЧЕСКИХ НАПРЯЖЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ ДАТЧИКОВ В РАЗЛИЧНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – Т. 4. – №. 40. – С. 203-210.

10. Мухаммадиев Б. С. ОСНАЩЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВА СОВРЕМЕННЫМИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ СРЕДСТВАМИ ИЗМЕРЕНИЙ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 3. – №. 31. – С. 44-52.

11. Мухаммадиев Б. С. ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ В ПРОМЫШЛЕННОЙ АВТОМАТИЗАЦИИ //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2024. – Т. 3. – №. 34. – С. 183-190.